

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O‘ZBEK VOHALIK JANGCHILARNING FRONTDA KO‘RSATGAN JASORATLARI

Karimboyeva Dilobar To‘rayevna

Shayxontohur tumani Kasb hunar maktabi

Tarix fani o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada dunyo aholisiga ulkan yo‘qotishlar keltirgan ikkinchi jahon urushining boshlanishi va uning urush maydonlaridan uzoq bo‘lsada SSSR tarkibiga kiruvchi O‘zbekiston SSRning Surxon vohasi ahliga ta’siri va surxondaryolik jangchilarning frontda ko‘rsatgan jasoratlari, ona vatanini himoya qilish uchun dushmanga qarshi ko‘rsatgan mardonovor harakatlari haqida qisqacha bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: «Osoaviaxim», «Vostokknigtorg», «Vatan urushi», S.Eshboyev, X.Jo‘rayev, Q.Omonov, N.Mamatqulov, A.Jo‘rayev.

“Mehribon ota-onasini, aziz farzandlarini, tabarruk ona yurt tuprog‘ini himoya qilishga otlangan bu botir insonlar kechayu kunduz qon kechib, Moskvadan to Berlingacha bo‘lgan olovli yo‘llarni qahramonlarcha bosib o‘tdilar”, deb e’tirof etadi muhtaram yurtboshimiz Shavkat Miromonovich o‘z nutqlarida.[1]

O‘zbek xalqi o‘zining azaliy an‘analariga sodiq qolib, dushmanga qarshi kurashga otlandi. Chunki butun dunyo tinchliksevar kuchlari irqi, millati, madaniyati, dini boshqa-boshqa bo‘lishiga qaramay yagona maqsad sari o‘z ona yurti, ota-onasi, oilasi, farzandlari tinch yashashi, kelajak avlodga tinch-osoyishta jamiyatni yaratish uchun yagona kuch bo‘lib, birlashib dushmanga qarshi kurashga chiqqan edi. Chunki bu davrda butun bir millat boshiga qirg‘in keltirgan manfur bosqinchi dushman ertaga boshqa millatga ham shunday ofat keltirishi dunyo tarixidan ma’lumdir. Shuning uchun ham o‘zbekistonliklar barcha tinchlikparvar xalqlar qatorida yovuz kuchni

yakson etishga kirishdilar. Fashizmning bosqinchilik harakatini qoraladilar va uni ona zaminimiz bo‘lgan O‘zbekistonga ham tajovuz deb baholadilar.

Fashistlar Germaniyasining SSSRga bostirib kirishi barcha tinchliksevar xalqlar qatorida surxondaryoliklarning ham qalbida fashizmga bo‘lgan nafrat alangasini avj oldirdi. Urushning birinchi kunidanoq Surxon elining azamatlari qo‘liga qurol olib fashizm bilan bo‘ladigan qonli janglarga otlandilar. Harbiy komissariatlarga o‘zlarining frontga yuborishlarini so‘rab yozilgan arizalar soni kundan-kunga orta bordi. Urushning dastlabki oylarida viloyatdan ko‘ngilli bo‘lib frontga ketish istagini bildirgan vatanparvarlar soni ikki ming kishidan oshib ketdi. Surxondaryolik minglab yigit va qizlar dushmanga qarshi otlanib, qo‘llariga qurol oldilar, viloyatning 80 nafar jasur qizlari qo‘llariga qurol olib dushman bilan ayovsiz kurash olib borgan bo‘lsa, viloyat komsomol qo‘mitasining kotibi Krasivin boshchiligida desantchi bo‘lgan 340 nafar o‘smir vatanparvarlarning nomlari havo qo‘shinlarining jangovar tarixiy solnomalaridan o‘rin oldi.

Urush yillari davomida viloyatda armiyaga qo‘shimcha kuchlar yetkazib berish va ularning harbiy tayorgarligini yaxshilash ishlariga ham alohida e‘tibor berildi. 1941-yil 29-sentyabrida VKP(b) Markaziy Qo‘mitasi «SSSR fuqarolariga umumiy majburiy ta‘lim berish haqida qaror» qabul qildi, qarorni bajarish jarayonida viloyatda 18 ta harbiy o‘quv punkti tashkil etildi. Birgina 1942-yil davomida viloyatda 193 nafar pulemyotchi, 101 nafar tank istrebiteli, 100 nafar avtomatchi va 40 nafar snayperchi tayyorlangan bo‘lsa, 1942-yil oxirigacha 1420 nafar kichik komandirlar tayyorlandi. 1943-yil mobaynida esa viloyat «Osoaviaxim» jamiyatida 721 nafar tank istrebiteli, 151 nafar pulemyotchi, 250 nafar kavaleriyachi tayyorlandi yoki viloyatda fuqarolarga harbiy ta‘lim berishning 1943-yilgi rejasi 170% ga bajarilib, 16481 nafar fuqaro harbiy va o‘quv mashg‘ulotlarida ishtirok etdi. Shuningdek, 25 sanitar drujinasida 266 nafar medisina hamshirasi tayyorlandi.[2]

Front liniyalarida Surxon vohasining azamat vatanparvarlari afsonaviy Brest qal‘asini, himoya qilishda ham alohida namuna ko‘rsatdi. Ular orasidan A.Sharipov, I.Qobilov, I.Begiyarovlar frontning qaysi liniyasida jang qilmasinlar har soat va har

daqiqada dushmanga qiron keltirib, mardlik namunasini ko'rsatdilar. Jumladan, Moskva shahrini himoya qilishda Surxon vohasi azamat yigitlarining ham alohida hissalar bor. Ana shunday mard va jasur yigitlardan J.Nazarov afsonaviy general G.K.Jukov qo'mondonligidagi G'arbiy front liniyalarida dushman bilan ayovsiz olishib, Moskva shahrini himoya qilishda alohida qahramonlik namunasini ko'rsatdi.

Urushdan oldin Termiz shahridagi «Vostokknigtorg» bazasida ishchi bo'lib ishlagan Prokopiyy Sivustinov o'z jangovar yo'lini 1941-yil avgust oyida boshladi, u to'pchilar rotasida dushman bilan ayovsiz jang olib bordi. Prokopiyy Sivustinov Kavkaz tog'lari uchun olib borilgan ayovsiz jangda alohida qahramonlik ko'rsatib, «Jasorati uchun» medali bilan taqdirlangan bo'lsa, Qrimni ozod qilish uchun olib borilgan hayot-mamot janglarida ko'rsatgan qahramonligi uchun esa ikkinchi marta o'sha medal bilan taqdirlandi. Prokopiyy Sivustinov Sevastopol uchun olib borilgan jangda III darajali «Shuhrat» ordeni, Vengriyani ozod qilish uchun olib borilgan jangda esa II darajali «Shuhrat» ordeni bilan mukofotlandi. [3]

Moskva ostonalarida mag'lubiyatga uchragan dushman qo'shinlari 1942-yilning yoz oylarida mamlakatning janubi-g'arbiy rayonlariga hujum boshladi. Bu hujumdan kuzatilgan maqsad Kavkaz neft konlarining Stalingrad sanoat tumanlarini hamda eng boy qishloq xo'jalik mintaqasi hisoblangan Don va Kubanni bosib olishi lozim edi. Iyul oyining o'rtalarida dushmanning zarbdor gruppirovkasi Chir daryosidan o'tib Stalingradga xavf sola boshladi, 1942-yil 12- iyulida esa Stalingrad fronti tashkil etildi. Stalingrad shahrini himoya qilishda S.Eshboyev, X.Jo'rayev, Q.Omonov, N.Mamatqulov, A.Jo'rayevlar alohida qahramonlik ko'rsatdi. Stalingrad mudofaasini tashkil qilishdagi hayot-mamot janglarida mardlik ko'rsatib, Vatan ozodligi uchun qurbon bo'lgan surxondaryolik mardu maydonlardan X.Jo'rayev, R.Qilichov, A.Ashurov va Abdug'aniyevlarga o'xshash Surxon elining yuzlab navqiron yigitlarining nomlari Stalingrad ozodligi uchun qurbon bo'lgan jangchilarning nomlari qatorida tarixiy-harbiy yilnomalardan o'rin olgan. Stalingrad shahrini dushmanlardan himoya qilishda, X. Jo'rayev, N. Mamatqulov kabi mard yigitlar alohida qahramonlik ko'rsatdilar.

1942-yil 19-noyabrda Stalingradda dushmanga qarshi hujumga o'tildi va oradan 4 kun o'tgach, nemislarning 6 ta armiyasi va uning tarkibidagi 4 ta tank armiyasi, ya'ni 22 diviziyasi va ayrim-ayrim 160 qismi kurashuvda qoldi. 1943-yilning 2-fevralida uyushtirilgan hujumlar natijasida qurshovda qolgan dushman qo'shinlari tamoman mag'lubiyatga uchradi hamda nemislarning 147 ming soldat va ofiseri o'ldirildi, yana 91 ming soldat va ofiseri asirga tushdi. Dushmanning Stalingrad ostonasidagi mag'lubiyati urushda tub burilish yasadi, Stalingrad shahridagi g'alabani qo'lga kiritishda Surxon vohasining ham azamat o'g'lonlari alohida jasorat namunalarini ko'rsatib dushman ustidan qozonilgan g'alabaga o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar. [4]

Kavkaz frontida dushmanga qarshi kurash olib borgan jangchilardan biri Safar Xudoyberdiyevdir. U o'z jangovar yo'lini Kavkazdan boshlab, Berlingacha bo'lgan masofani bosib o'tdi. Frontdagi qahramonliklari uchun ko'plab orden va medallar bilan mukofotlanib, g'alabani qarshilash baxtiga muyassar bo'ldi.

Xalqlar ozodligi yo'lida kurashgan Surxondaryolik yigitlardan yana biri Bobo Sharafullayevdir. U 1943-yil Estoniyaning Narva ostonalarini dushmandan tozalashda alohida qahramonlik ko'rsatdi. Urush boshlarida Surxon elining ko'plab bahodirlari jang maydonlarida mardlarcha halok bo'ldi. Frontga Boysun tumanidan ketgan Razzoq Doniyev ham tinchlik uchun jonini qurbon qilgan bahodirlardan biridir. U urushda 389-o'qchi diviziyasi tarkibidagi 1279-o'qchi polkda mo'ljallovchi sifatida jang qilgan. Bojuv aholi punkti yaqindagi 246,4 tepaligi uchun bo'lgan jangda Razzoq Doniyev o'z pulemyotidan o't ochib, piyodalarga to'sqinlik qilayotgan dushman nuqtasini yakson qildi va 4 gitlerchini asir qilib oldi. Keyinchalik piyodalar bilan izma-iz borib ularning hujumini davom ettirish uchun imkoniyat yaratib berdi, 389-o'qchi diviziyasi komandirining 1944-yil 16-avgustidagi buyrug'iga binoan Razzoq Doniyev III darajali "Shuhrat" ordeni bilan taqdirlandi. U 1945-yilning 27-fevralida qahramonlarcha halok bo'ldi. Qahramon jangchining jasadi Germaniyadagi Gubin shahridan 12 km janubdagi Neyderfel qishlog'ida dafn qilingan.

Fashizmga qarshi kurashda jon fido qilgan yana bir qahramon jangchi denovlik Ollomurod Nazarovdir. U urushga Denov tumani Vaxshivor qishloq kengashida chaqirilgan, frontda 194-o'qchi diviziya tarkibidagi 616-o'qchi polkida o'qchi sifatida olib borilgan jangda dushman qarorgohiga birinchi bo'lib, bostirib kirib, 12 gitlerchini yer tishlatdi. 26-avgust kuni Bryansk shahri yo'nalishida olib borilgan jangda va Mormal aholi punkti uchun olib borilgan jangda ketma-ket ikki marta yaralandi. 194-o'qchi diviziya komandirlarining 1944-yil 13-iyundagi 127 N rusumli buyrug'iga binoan Ollomurod Nazarov III darajali «Shuhrat» ordeni bilan mukofotlandi. U 1945-yilning 15-fevral kuni dushman bilan olib borilgan janglardan birida qahramonlarcha halok bo'ldi. Marhum jangchining jasadi Polshaning Usxanovsk uyezdidagi Gorntnik qishlog'ida dafn qilingan.

Sherobod tumanidagi Oqqo'rg'on qishloq kengashidan frontga ketgan Islom Qurbonov ham dushman bilan bo'lgan janglarda namuna ko'rsatib, dushman ustidan qozonilgan g'alabaga o'zining munosib hissasini qo'shdi. U 393-o'qchi diviziyasining 1277-o'qchi polki tarkibidagi tankka qarshi qurollar rotasi bo'limida komandir sifatida jang qilgan. Ardon aholi punkti bo'sag'asida bo'lgan dushman bilan olishuvda alohida mardlik ko'rsatgan Islom Qurbonovning jasadi shimoliy Osetiyadagi Ardon qishlog'idan 500 metr shimoli-g'arbiy tomonda dafn qilingan.

Denovlik Omon Soliyev yovuz dushmanga qarshi 87-gvardiyachi o'qchi diviziya tarkibidagi 1378-polkda o'qchi sifatida jang qilgan. Sevastopol yaqinidagi 144,4 va Bezimyannaya tepaliklarga hujum qilgan 1944-yil 9-may kuni dushman minamyot va pulemyotlardan shiddatli o'q ochib turganligiga qaramay gitlerchilar transheyasiga birinchi bo'lib bostirib bordi. Granata irg'itib dushmanning bir pulemyot nuqtasini, avtomatdan o't ochib 8 soldatini yakson qildi, yengil yarador bo'lganiga qarmay jang maydonidan ketmadi. 87-gvardiyasi o'qchi diviziya komandirlarining 1944-yilning 18-mayidagi 033 N rusumli buyrug'i bilan Omon Soliyev III darajali «Shuhrat» ordeni bilan mukofotlagan. Omon Soliyev yarador bo'lib, 1945-yil 25 yanvar kuni hospitalda vafot etgan, jasadi Litviyaning Libava rayonining Kali

Kestechkasidagi alohida uydan 150 metr shimoli-g'arb tomondagi o'rmon chekkasida dafn qilingan.

Boysunlik Qosimov Juma esa urushga Boysun tumanining K.Marks nomli jamoa xo'jaligidan safarbar qilingan. 151-gvardiyachi o'qchi polkning birinchi o'qchi batalonida o'qchi sifatida qatnashgan Juma Qosimov 1944-yil 19-24-yanvar kunlari olib borilgan shiddatli janglarda alohida mardlik va jasurlik ko'rsatgan. U vzvod jangovar tartibining oldida borib, dushman transheyasiga birinchi bo'lib bostirib kirdi va granatalar uloqtirib o'ndan ortiq nemisni er tishlatdi. 151-gvardiyachi polk komandirining 1944-yil 31-yanvardagi 035 N rusumli buyrug'iga asosan Juma Qosimov jasurligi uchun medali bilan mukofotlangan. Juma Qosimov 1944-yil 11-mart kuni dushman bilan bo'lgan shiddatli jangda mardlarcha halok bo'ldi.

Vatan ozodligi yo'lida jon fido qilgan jangchining hamshahari Umar Ramazonov dushmanga qarash kurashlarda mardlik namunalarini ko'rsatib, dushmanning 2 ta pulemyotini, 40 dan oshiq askarini yakson qildi va polk komandirining 1943-yil 15-maydagi 016 11-rusumli buyrug'i bilan «Jasurligi uchun» medali bilan taqdirlandi. Ramazonov Umar 1944-yil 18-aprelda bo'lgan jangda qahramonlarcha halok bo'ldi, uning jasadi Rovani viloyatidagi Chervona qishlog'ida dafn qilingan.

Dushmanga qarshi olib borilgan janglarda ishtirok etgan sherobodlik jangchi Jovli Boymatovning qahramonliklari bugungi yoshlarga ibrat bo'larlik darajadadir. Jovli Boymatov 1943-yilning mart oyidan boshlab dushmanga qarshi jang qila boshladi va o'z jangovar yo'lini Shimoliy Donesk yoqasida to'p mo'ljallovchisi sifatida boshladi. Xarkov va Merefa shaharlari bo'sag'asida Dnepr daryosidan birinchilar qatori o'tgach, egallangan plasdarmni mustahkamlab, dushmanning qator qarshi hujumlarini qaytardi. Jovli Boymatov Nedayvoda qishlog'i yaqinida gitlerchilarning hujumini qaytarish vaqtida dushmanning ikki tankini yakson qilib, saksonga yaqin soldat va ofiserni yer tishlatdi. Jovli Boymatov 1944-yil 20-avgustda boshlangan Yassi Kishenov operasiyasining ham ishtirokchisidir. U o'qchilarning olg'a siljishini ta'minlash davomida fashistlarning ikki to'pini, beshta minamyotini va

yetmish besh soldat va ofiserini safdan chiqardi. Shuningdek, Polsha hududidagi Gjimalo qishlog‘i yaqinida o‘tkazilgan kuchli artilleriya tayyorgarligida ishtirok etib dushmanning beshta to‘pi, oltita minamyoti, oltita pulemyot nuqtasi va etmishga yaqin soldatini yakson qildi. 1944-yil 5-dekabrda 213-o‘qchi diviziyaning «Za pobedu» nomli gazetasining 180-sonida katta leytenant V.Kamenyev Jovli Boymatov jasratlari haqida hikoya qiluvchi «Do‘stlik» nomli maqolasini e‘lon qildi. Maqolada shunday so‘zlarni o‘qish mumkin, «Birodarlik tuyg‘usi jangchilarimizni eng og‘ir vaziyatlarda ham yengilmas qilib, bu tuyg‘u ularga kuch bag‘ishlaydi, olg‘a boshlaydi, ularni qahramonga aylantiradi. Fashist bosqinchilarini o‘z vatanlaridan tashqarida yakson etayotgan hozirgi vaqtda ham ularga raxbarlik qiladi. Qismimiz jangchilari jangovar ishlari bilan xalqlar o‘rtasida birodarlik va do‘stlik an‘analarini mustahkamlashda o‘zlarining hissalarini qo‘shmoqda. Ana shu muqaddas do‘stlikka sodiq jangchilarimizdan biri Jovli Boymatovdir. Jovli Boymatov ruslar va ukrainlar bilan birgalikda tankka qarshi o‘q otuvchi zambarakdan o‘t ochib, gitlerchilarga qiron keltirdi. U katta jangovar yo‘lni bosib o‘tdi, dushmanga qarshi olib borilgan juda ko‘p janglarda qatnashdi. Boshqa jangchilar kabi Jovlining qalbida ham fashistlarga qarshi qahr-g‘azab jo‘sh urmoqda, shunga ko‘ra u yovuz dushmanning yettita tankini safdan chiqardi. Mamlakatimiz xalqlarining birligi dushman ustidan uzil-kesil g‘alaba qozonishimizning garovidir». Jovli Boymatov Niderbilar qishlog‘i yaqinida Neysi daryosidan o‘tish uchun hujum qilingan 1945-yil 16-aprel kuni o‘qchilar bilan bir safda Mikkenxayn qishlog‘iga yetib bordi va dushmanning bir necha qarshi hujumini qaytarishning uddasidan chiqadi. 1945-yil 18-aprel kuni otish pozitsiyasida turgan Jovli Boymatov komandirlik qilayotgan to‘p raschyoti 16 ta tank madadiga tayangan holda qarshi hujumga o‘tgan dushman bilan olti marta to‘qnashdi. To‘p raschyotining butun tarkibi ishdan chiqdi, ammo, komandir Jovli Boymatovning bir o‘zi jangni davom ettirdi va dushman hujumini qaytarish davomida fashistlarning uchta tanki va 50 askarini safdan chiqardi. Ana shu jangda Jovli Boymatovning o‘zi ham halok bo‘ldi, ammo, birorta ham fashistni o‘tkazmadi. Jovli Boymatov komandirlik qilgan zambarak raschyoti hammasi bo‘lib dushmanning o‘n ikkita tankini, yettita zambaragini, sakkizta

minomyotini, o'n bitta pulemyot nuqtasini, 350 ga yaqin soldat va ofiserini yakson qildi. Marhum qahramonning jasadi Germaniyadagi Nodersdref qishlog'idan 400 metr shimoli-sharq tomondagi Bezimyannaya tepaligida dafn qilingan. Jovli Boymatov janglarda ko'rsatgan qahramonligi uchun 1943-yil 4-dekabrda 37-armiya qo'mondoni va 1945-yil 19-may kuni 52-armiya qo'mondoni buyrug'i bilan «Vatan urushi» ordenlari bilan mukofotlangan. [5]

Mash'um urush yillarida dushman bilan qonli janglarda minglab mardu maydon surxondaryoliklar fashizmga qarshi qahramonlarcha halok bo'ldilar. Ana shular orasida O'tkir To'rayev, Jo'ra Oltiboyev, Abdulaziz Qodirov, Muhammadi Xo'jamurodov, Ziyo Xo'jamurodov, R.Qurbonov, E.To'raqulov, Sh.Allanazarov va shunga o'xshash ko'plab mardu maydonlarning nomlarini sanab o'tish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, qonli janggohlarda jonini fido qilgan marhum jangchilarning muqaddas xotiralari bugungi avlod xotiralarida mangu yashab, yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, yoshlarimizni otalar jasoratiga sodiq bo'lib o'sishlarida katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Urush yillarida surxondaryolik mard yigitlar harbiy ilm sirlarini mustahkam egallab, ofiser darajasiga ko'tarildilar. Ana shunday ofiserlardan podpolkovnik Qaysarov, Kumikov, Glazunovlar, mayor Nosirov, E.Muhammadiyev, Quvvatov, mayor Denisov va shunga o'xshash ko'plab zobitlarning nomlarini ko'rsatib o'tish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *Shavkat Mirziyoyevning 9-may munosabati bilan so'zlagan nutqi. 09.05.2018*
2. *Saidmurodov N. "Ulug' Vatan urushi yillarida Surxondaryo viloyat partiya tashkiloti faoliyati" 20-21-betlar.*
3. *"Fashizm ustidan qozonilgan g'alabada O'zbekistonning tarixiy hissasi" (1941-1945 yy.). -T.: «Fan», 1996.50-bet*
4. *Tursunov S., Pardayev T. "Unutilmas jasorat". -Toshkent: 1995.*
5. *Tursunov S., Pardayev T. "Unutilmas jasorat". -Toshkent: 1995.*